"O'zbekiston-Hindiston: madaniy aloqalar tarixidan" nomli foto ko'rgazma tashkil qilindi

O’zbekiston va Hindiston o’rtasidagi munosabatlar do’stlik, ishonchli hamkorlik, ming yillik tarixiy-madaniy, ma’naviy rishtalar orqali rivojlanib kelgan. Qadimdan ikki davlat ilm-fan taraqqiyoti va tinchlikka intilib, xalqlar birdamligi uchun hamkorlikka alohida e’tibor qaratgan. Buyuk bobokalonlarimiz Hindiston xalqining tarixi bobida benazir asarlar yaratgani, o’zbek va hind san’atlari milliy madaniyatlar va adabiyotlarimiz hamohang ekanligidan dalolat beradi. Buyuk ipak yo’lining O’zbekiston va Hindiston bo’ylab o’tishi natijasida nafaqat savdo-iqtisodiy, balki madaniyatlar o’rtasida ham almashinuvlar yuz bergan.

2021-yil 21-yanvar kuni O'zR FA O'zbekiston tarixi davlat muzeyi filiali Toshkent muzeyida "O'zbekiston-Hindiston: madaniy aloqalar tarixidan" nomli foto ko'rgazma ochilishiga bag'ishlangan tantanali tabdir bo’lib o’tdi.

Ko’rgazma Toshkent fotolar uyi, O’zbekiston Kinofotofono hujjatlari milliy arxivi bilan hamkorlikda tashkil etildi. Ko'rgazma ochilishiga bag'ishlangan tantanali tabdirda Mirobod tumani Madaniyat bo’limi va Lal Bahodur Shastri nomidagi 24-maktab o’quvchilari o’zlarining badiiy chiqishlari bilan ishtirok etdilar.

Ko’rgazmada Hindiston rahbariyatining O’zbekistonga tashrifi va zamonaviy Hindistonning fotosuratlari namoyishga qo’yilgan.

O’zbekiston va Hindistonni tarixiy, madaniy aloqalar bog’lab turishi, urf-odat, an’analarda mushtarak jihatlarning mavjudligi ikki tomonlama madaniy-gumanitar hamkorlikni yanada rivojlantirish imkonini berdi. Buning natijasida O’zbekiston va Hindiston o’rtasida madaniy almashuvlarni yo’lga qo’yishda muhim ahamiyat kasb etayotgan "O’zbekiston-Hindiston" do’stlik jamiyati, Lal Bahodur Shastri nomidagi hind madaniyati markazi faoliyati yo’lga qo’yilgani hamda bugungi ko'rgazma mamlakatlarimiz o’rtasidagi hamkorlikni mustahkamlashga va izchil rivojlantirishga xizmat qilmoqda.